

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
OLIY MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**

Tasdiqlayman:
**«Oliy matematika va axborotlar
texnologiyalari» kafedrası**
mudiri: _____ dos. X.Urdushev
«_____» _____ 2014 y.

**"INFARMATIKA VA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI" FANIDAN
KURS ISHI**

Mavzu: Internet va intarnet xizmatlari
2013- 2014 o'quv yili

Bajardi: _____
(f.i.sh) (imzo)

_____ *bo'limi*

1-bosqich _____ - guruh talabasi

Rahbar : _____
(f.i.sh) (imzo)

Komissiya raisi: _____

A'zolari: _____

Sana: _____

“Tasdiqlayman”
“Oliy matematika va axborotlar
texnologiyalari” kafedrası
mudiri _____ dos. X.Urdushev
« _____ » _____ 2014 y.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan
BAJARILADIGAN KURS ISHINI TOPSHIRIQ VA BAHOLASH VARAQASI
_____ (f.i.sh) _____ bo'limi,

1-bosqich _____ - guruh talabasi

Rahbar: _____

MAVZU TOPSHIRIG'I BO'YICHA VAZIFALAR:

1. **Operatsion tizimlar** mavzusidagi topshiriq

2. Dastlabki ma'lumotlar: Kurs ishi mavzusiga oid konspektlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'rganish, bajarish va o'zlashtirish

3. Foydalanilgan materiallar:

Kafedradagi 1) Informatika va axborot texnologiyalari fanidan elektron o'quv-uslubiy majmua; 2) <http://www.ziynet.uz>- axborot ta'lim tarmog'i resurslari va [3;5;15;18;26;28;29;39;45] adabiyotlar

4. Qo'shimcha vazifa va ko'rsatmalar Kurs ishida Internet va internet xizmatlari mavzusida internetdan ma'lumotlar keltirilsin.

Kurs ishini topshirish muddati:

Talaba _____

(imzo)

(f.i.o)

(sana)

1	2	3	4	Tushuntirish xati	Himoyaga ruxsat berildi, (ruxsat berilmadi)
Kurs ishi rahbarining imzosi					

Kurs ishini baholash	Maksimal ball, jami	Kurs ishini tayyorlash uchun, ball OB	Kurs ishini himoyasi uchun, ball JB	Kurs ishi himoyasida savollarga javob berish uchun ball OB
Kurs ishini baholash	100	0- 40	1- 30	1- 30
Talabaning to'plagan bali				

Rahbar _____

(imzo)

(f.i.sh)

(sana)

Mavzu. Internet va intarnet xizmatlari

Kirish

I.Kurs ishining nazariy (referativ) qismi bo'yicha vazifalar:

- 1.Internet va intranet tarmog'i, ularni tashkil etish
- 2.Internetga bog'lanish usullari
- 3.Internetda adres tushunchasi va uning turlari
- 4.Veb-saytlar va ularning turlari
- 5.Veb-sahifa va uning tuzilishi
- 6.Veb brouzerlar va ularning imkoniyatlari

Xulosa

7.Microsoft PowerPoint : taqdimotda turli obyektlarni joylashtirish

II. Kurs ishining amaliy qismi bo'yicha vazifalar:

1(6). MS Excel dasturida hisoblanadigan iqtisodiy ko'rsatkichlarni keltiring. Berilgan boshlang'ich ma'lumotlarga ko'ra rentabellik, zarar, foyda boshqa ko'rsatkichlarini aniqlash: 21- vazifa.

2.Axborot jarayonlarini algoritmlash va dasturlash. Quyida berilgan masalani:
1) so'zli algoritmini tuzing; 2) blok-sxemali algoritmini tuzing; 3) dasturlash (Paskal) tilida-dasturli algoritmini tuzing; 4) Turbo-Paskal muhitiga dasturni kiriting va natijalarni tahlil qiling: 51-vazifa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.I.A. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.; O'zbekiston, 2009. -56 b.
- 2.I.A. Karimov. "Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi"//“Halq so'zi” 2009 y., 14 fevral.
- 3.Informatika. Darslik/Akademik S.S.G'ulomov umumiy tahriri ostida.T.; – TDIU, 2007 y.
- 4.Golisyina O.L., Maksimov N.V., Partыka T.L., Popov I.I. Informacionnyye texnologii: uchebnik. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.FORUM:INFRA-M,2008. –608 s.
- 5.Ayupov L.F., Begalov B.A., va boshq. Shaxsiy kompyuterlar va ulardan samarali foydalanish asoslari. O'quv qo'llanma. T.; 2008 y.

6.Alimov R.X, Begalov B.A., Yulchiyeva G.T., Alishov Sh.A. “ Iqtisodiyotda axborot tyexnologiyalari”.O’quv qo’llanma. T: - “Sharq”, 2006.

7.Alimov R, Xodiyev B, Alimov Q va boshqalar. “Milliy iqtisodda axborot tizimlari va texnologiyalari”, T.: “Sharq”-2004

8.Alimov R, Xodiyev B.Yu. va boshqalar. “Axborot texnologiyasi”. O’quv qo’llanma. T.: - TDIU, 2004.

2.Qo’shimcha adabiyotlar

9.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari" nomli asarini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. Tuzuvchilar: B.Yu. Xodiyev, A.Sh. Bekmurodov, U.V. G’ofurov, B.K.Tuxliyev.-

T.:Iqtisodiyot,2009.– 120 b.

10.Gagarina L.G., Kokoreva Ye.V., Visnadul B.D. Texnologiya razrabotki programmno go obespecheniya: uchebnoye posobiye /pod red. L.G. Gagarinoy. – M.: ID «FORUM»: INFRA-M, 2008. – 400 s.

11.Alimov R.X., Yulchiyeva G.T., Alishov Sh.A. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan masalalar va ularni yechish bo’yicha uslubiy ko’rsatma. TDIU, 2005.

12.Alimov R.X., Yulchiyeva G.T., Alishov Sh.A. va boshqalar. “Axborot texnologiyasi va tizimlari” fanidan Microsoft Word matn muharririda tajriba mashg’ulotlarini o’tkazishga oid uslubiy ko’rsatmalar.T.: TDIU. 2005.

13.Пауленко I.Windows XP. Shag za shagom. M.: Eksmo, 2006,- 368 s.

3.Elektron darsliklar

14.iSoft.uz – interaktiv o’rgatuvchi dasturiy majmua. Axborot texnologiyalari bo’yicha multimediali interaktiv o’rgatuvchi dasturiy majmua

15.Электронный учебник. Microsoft Word. chm

16.Электронный учебник. Microsoft PowerPoint chm

4.Internet portallar va saytlar

17.<http://www.gov.uz>- O’zbekiston Respublikasi hukumati portali.

18.<http://www.ziyonet.uz>- axborot resurslari

19.<http://www/ziyo.edu.uz>- OO’MT Vazirligi Veb-sayti

20.<http://www.tsue.fan.uz> - TDIU Veb - sayti

Kirish

I.Kurs ishining nazariy (referativ) qismi bo'yicha vazifalar:

1.Internet va intranet tarmog'i, ularni tashkil etish

Internet - bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International Network" – xalqaro tarmoq va "Interconnected networks" «tarmoqlararo» degan ma'noni anglatadi.

Internet tarmog'ining asosiy

yoqismlari) bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o'zaro bog'lovchi lokal tarmoqlardir. Internet tarmog'i – bu global tarmoq vakili hisoblanadi.

Internet alohida kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatibgina qolmay, balki kompyuterlar guruhini o'zaro birlashtirish imkonini ham beradi.

- Internet o'z - o'zini shakllantiruvchi va boshqaruvchi murakkab tizim bo'lib, asosan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan:

- Internet tarmog'ining texnik ta'minoti har xil turdagi kompyuterlar, aloqa kanallari hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan.

- Internet tarmog'ining dasturiy ta'minoti tarmoqqa ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida ishlashni ta'minlovchi dasturlar.


- Internet tarmog'ining axborot ta'minoti Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, veb-sayt va hokazo ko'rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan.

- Internet tarmog'ining texnik ta'minoti har xil turdagi kompyuterlar, aloqa kanallari hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan.

- Internet tarmog'ining dasturiy ta'minoti tarmoqqa ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida ishlashni ta'minlovchi dasturlar.

- Internet tarmog'ining axborot ta'minoti Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, veb-sayt va hokazo ko'rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan

Интернетни тuzилиши



asosan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan

Internetning yaratilishiga asos AQSh Mudofaa Vazirligining Tadqiqotlar agentligi (**Advanced Research Projects Agency (ARPA)**) loyihasi bo'lib, uning maqsadi bir-biri bilan o'zaro bog'langan tarmoqlar majmuasini yaratishdan iborat edi. Bunda shu tarmoqdagi Biron-bir bo'g'in ishdan chiqqan holda ham qolganlari to'liq ish faoliyatida bo'lishini ta'minlash kerak edi. Hozirgi kundagi Internet shunday talablarga to'liq javob Bera oladigan kompyuter tarmoqlari majmuasidan tashkil topgan.

Internetning rivojlanish tarixi. Unga quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1960 asosi **ARPAnet (Advanced Research Projects Agency –Network,** Ilg'or loyihalar agentligi tarmog'i) loyihasi amalga oshirilgan.

- 1972 yilda E-mail xizmati ishga tushirildi.

- 1989 yilga kelib **ARPAnet** ga ulangan kompyuterlar soni 100 000 taga yetgan.

- 1989 yilda **World Wide Web (WWW)** standarti ish boshladi. Uning ixtirochisi va asoschisi sifatida Tim Berners Leye (Tim Berners Lee) tan olindi.

- 1990 yilda ARPAnet tarmog'i kengaydi va u **Inter-Network** ko'rinishida **Internet** deb atala boshlandi.

- 1993 yilda Mark Anderson tomonidan birinchi **Mosaik** brauzeri yaratildi.

- 1994 yil kelib **Mosaik** brauzeridan foydalanuvchilar soni 340% ga o'sdi.

WWW tushunchasi. WWW (World Wide Web) – butun jahon o'rgamchak to'ri deb nomlanuvchi tarmoq. WWW – bu Internetga ulangan turli kompyuterlarda joylashgan o'zaro bog'langan hujjatlarga murojaat qilishni ta'minlab beruvchi tarqoq tizimdir. Aynan mana shu xizmat Internetdan foydalanishni soddalashtirdi va ommaviylashtirdi.

- WWW asosida to'rtta poydevor mavjud:

- Barcha hujjatlarning yagona formati (shakli);

- Gipermatn;

- Hujjatlarni ko'rish uchun maxsus dasturlar (brouzer);

- Yagona manzilni ko'rsatish tizimi (domen);

Internet provayderlari va ularning vazifalari

- Internet provayder – Internet tarmog'i xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotdir.

- Internet provayderlarining ikki turi mavjud: Internetga ulanish va ulanish kanallarini taqdim etuvchi provayder va Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayder

- Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayderlar tomonidan www, elektron pochta, xosting (vab resurslarni joylashtirish) kabi Internet xizmatlari ko'rsatilmoqda.

- Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bir qancha Internet provayderlari xizmat ko'rsatmoqda, bular:

- UzNet,

- Sarkor Telecom,

- Sharq Telecom,

- TPS,

- ARS Inform,

- Cron Telecom va boshqalar

Internet tarmog'i xizmatlari:

Internet provayderlar quyidagi xizmatlarini taqdim etadi:

- WWW Internet resurslarini tashkil etish

- E-mail Elektron pochta xizmati

- Web hosting Shaxsiy vab saytlarni Internetga joylashtirish

- Internet conference Internet orqali video muloqot
- Searching Internet qidiruv tizimlaridan foydalanish
- FTP fayllarni almashish protokoli
- IPTV Internet tarmog'i orqali raqamli televideniya
- Internet **Haritasi**. IP telefoniya Internet tarmog'i orqali telefon so'zlashuvlar
- **Intranet (Intranet)** – lokal yoki hududiy taqsimlangan tashkilotning shaxsiy tarmog'i, u joriy qilingan xavfsizlik mexanizimi bilan xarakterlanadi.

Bu tarmoq Internet texnologiyalariga asoslanib quriladi. Intranet atamasi 1995 yilda yuzaga keldi va keng qo'llanila boshlandi. Intranet atamasi biror bir kompaniyaning Internet texnologiyalarini o'z lokal tarmog'ini ichida (intra-) qo'lashini anglatadi.

Intranet tarmoqlarni qo'llashni afzallik tomonlari: kompaniyaning barcha xodimlarini ularni kompyuterlari qayerda joylashishidan qa'tiy nazar ish jarayonida axborotlar bilan ishlashda mavjud dastur-apparat vositalariga kirish imkoniyatidan foydalanishidir. Tijorat korxonalarida Intranet axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, boshqarish va taqdim qilish uchun zarur bo'ladi.

Sayt (Site). Internetda serverlarning joylashgan manzili.

Internetda elektron biznes bilan shug'ullanadigan korporasiyalar ko'p hollarda, aralash tarmoqlarni shakllantiradilar, qaysikim bu yerda korporasiyalarning ichki uzellarini qismto'plami Intranetni shakllantiradi, ularning Internet bilan ulangan tashqi uzellari Ekstranet (Extranet) deb nomlanadi.

Intranetda asosan Internetning Web ilovalari qo'llaniladi:

HTML formatidagi gipermatnlar;

http gipermatni uzatish protokoli;

CGI server ilovalarini interfeysini.

Bundan tashqari Intranetga tarkibiga axborotlarni statistik va dinamik taqdim (e'lon) qilishni Web-serverlari, gipermatnlarni ko'rish va interpretasiya qilishni Web-brauzerlari. Intranet-ilovalarini barcha yechimlarini asosi ma'lumotlar bazasi bilan o'zaro aloqasi tashkil qiladigan mijoz-server arxitekturasini hisoblanadi.

Intratarmoqlarga ega bo'lgan tarmoqlar ko'yidagi imkoniyatlarga ega bo'ladilar:

1) Intranet tarmog'ida har bir foydalanuvchi sozlangan ishchi stansiyasidan turib, Web-serverda joylashtirilgan hujjatlarga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu qo'plab vositalarni tajashni ta'minlaydi;

2) Intranet tarmog'idagi hujjatlar avtomatik qayta yangilanadi. Bundan tashqari xodimlarning Web-serverda e'lon qilingan xujjatlarga necha marotaba murojaat qilganliklarini ham hisobga olib borish imkoniyatini beradi;

3) Aksariyat kompaniyalar Web-brauzer bilan bevosita murojaat qilish mumkin bo'lgan ilova (dastur)larni tanlaydilar;

4) Web-serverda e'lon qilingan konfidensial hujjatlarga Internet orqali kirish parol orqali amalga oshiriladi.

2. Internetga bog'lanish usullari

Hozirgi kunda eng ommalashgan internetga bog'lanish usullariga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Oddiy modemli bog'lanish (kommunikasiyalanuvchi kirish): **Dial-Up**
2. Raqamli abonent yo'li bilan modemli bog'lanish: **ADSL**
3. Ajratilgan liniyalar bo'yicha (optik tolali va b.) bog'lanish;
4. **Wi-Fi** simsiz texnologiyasi orqali bog'lanish
5. Mobile **WiMAX** simsiz texnologiyasi orqali bog'lanish;
6. **GPRS / 3G** texnologiyasi bilan- mobil telefon orqali bog'lanish;
7. Sputnik yordamida bog'lanish.

3. Internetda adres tushunchasi va uning turlari

TCP/IP protokollar oilasida adreslarning uchta tipi qo'llaniladi: lokal (fizik, apparatli), IP adreslar va belgili domenli nomlar (domenli adreslash).

Lokal adreslar har bir tarmoqli ulanish uchun unikal, Internet tarmog'ini tarkibiy elementi bo'lgan tizim ostilaridir. Lokal adreslar tizimostilar doirasida berilganlarni uzatish uchun qo'llaniladi

Berilganlarni bir kompyuterdan ikkinchisiga uzatish uchun jo'natuvchi va qabul qiluvchisini manbasini bilish zarur bo'ladi. Tarmoqqa ulangan har bir kompyuter, o'zining shaxsiy unikal adresiga ega bo'ladi. Kompyuterda har qanday axborot raqamli ko'rinishda taqdim qilingani kabi, kompyuterning ham manzili raqamli ko'rinishdan iborat bo'ladi.

IP-adres – bu kompyuterning unikal sonli manzili bo'lib, u 32 bit uzunlikka ega bo'lib, 8 bitdan iborat to'rta qismga ajratilgan holda ifodalanadi. Axborotlar sonini aniqlash formulasi turli hil **IP**- adreslarning umumiy soni 4 milliarddan ziyod, yoki $N=2^{32}=4294967296$ ga teng bo'lishi mumkinligini bildiradi.

IP – adresni ikkilik sanoq tizimda ifodalanishi inson uchun noqulayliklar tug'dirgani munosabati bilan, amaliyotda IP-adresni o'nlik sanoq tizimida ifodalash qabul qilingan. Demak, IP adreslar, nuqta bilan ajratiladigan oktet deb nomlanuvchi to'rta qismdan iborat o'nlik sanoq tizimidagi sonlar orqali ifodalanadi: W.X.Y.Z.

Demak IP-adres tarmoq manzilini va kompyuterni shu tarmoqdagi manzilini ifodalaydi. Adresdagi sonlar chapdan o'ngga qarab o'qiladi

Masalan, 169.254.164.37

169.254.164 – qism tarmoqlar manzili

37- foydalanuvchi kompyuterini manzili

4. Veb-saytlar va ularning turlari

Veb-saytlar birgalikda birgalikda «Dunyo o'rgamchak to'ri»ni tashkil qiladi. Mijozlarni serverlardagi veb-saytlariga bevosita kirishini ta'minlash uchun maxsus **HTTP** protokoli ishlab chiqilgan.

WAP-saytlar mobil telefonlari bilan saytlar kirishni ta'minlaydi.

Veb-sayt ingliz tilidagi **website** so'zidan olingan: **web** — «to'r», «tarmoq» va **site** — «joy, o'rin», «tarmoqdagi o'rni, joyi» ma'nolarni anglatadi.

Veb-sayt – kompyuter tarmog'ida bitta manzil (domen nom yoki IP- adres) bilan birlashtirilgan hujjatlar majmui. U biror kompaniya yoki korxonaga, yoki shaxsga mansub bo'lishi mumkin.

Aksariyat – veb saytlar uchun dinamiklik va interaktivlik xossalari o'rinli bo'ladi. **Veb-ilova** atamasi veb-sayt masalalarini yechish uchun tayyor dasturiy kompleksini ifodalaydi. Aksariyat hollarda – veb-saytlarga bitta domen nom mos keladi. **Veb-sayt** domen nom bilan veb-sayt tarmoqda identifikasiya qilinadi.

Boshqa variantlar ham bo'lishi mumkin: bitta sayt bir nechta domenlardan yoki birnechta saytlar bitta domen nomga ega bo'lishi mumkin.

Odatda katta saytlar ko'rsatadigan xizmat turlarini mantiqiy farqlash uchun bir nechta domenlarni o'zida mujassamlashtiradi, ularni veb-portallar atash qabul qilingan. Masalan, **mail.google.com**, **news.google.com**, **maps.google.com**

Veb-saytlar saqlanadigan apparatura vositalari **Veb-serverlar**, saqlash xizmati **Veb xosting** deb ataladi. 1990 yilning oxirlarida dunyoda funksional veb-redaktorli birinchi gipermatnli **WorldWideWeb** brauzer, **NeXTcube** bazasida birinchi server va birinchi veb sahifa yaratildi. 1991 yil may oyida Jenevadagi Yevropa yadro tadqiqotlari markazida (CERN) [WWW standarti tasdiqlandi](#)

5.Veb-sahifa va uning tuzilishi

Veb-sahifa (ingliz tilida Web page)- hujjat yoki axborot resursi. Bu resurslarga kirish veb-brauzer orqali amalga oshiriladi.

Veb-sahifalar **Veb-sahifa** odatda [HTML](#) belgilar tilida yoziladi va boshqa sahifalarga tez o'tish uchun gipermurojaatlarni o'zida saqlaydi.

Axborotlar veb-sahifa turli matn, statistik va animasiyalangan grafik tasvirlar, audio, video va appletlar kabi shakllarda taqdim qilinishi mumkin.

Veb-sahifani tashkil qiluvchi axborotlar mazmunini mohiyati **kontent** deb ataladi.

Veb – sahifalar statistik yoki dinamik tasnifga ega bo'ladi. Dinamik sahifalar ma'lumotlar bazasidagi axborotlarni qayta ishlaydi va taqdim qiladi. Bu texnologiyalar veb-sahifalarni generasiyalash deb nomlanadi.

Veb-sahifa – veb-saytning mustaqil qismi; unikal URL adres bilan ta'minlangan xujjat. Veb sahifa statistik yoki dinamik qurilishga ega bo'lishi mumkin. Odatda veb-sahifalar gipermatn ko'rinishda tuziladi va unda matn, grafika, tovush, video va animasiyalarni o'zida mujassamlashtiradi.

6.Veb brouzerlar va ularning imkoniyatlari

Brauzer deyilganda veb-saytlarni ko'rish uchun qo'llaniladigan das-turiy ta'mnot tushuniladi.

Gipermurojaatlarga asoslangan brauzer yorda-mida foydalanuvchi veb-sahifalarni ko'rish, bir-sahifadan boshqa siga o'tish mumkin

Browser inglizcha so'z bo'lib, ko'rishni ta'minlash, ko'rsatish ma'nosini anglatadi.

Internet WWW xizmatidan foydalanish uchun maxsus dasturlar yaratilgan bo'lib, ular Web-brauzerlar (Browser) deb ataladi.

Web-brauzerning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Web-sahifalarni xotiraga yuklash va ko'rish;
- Web-sahifani diska yozib qo'yish (saqlash);
- WWW dagi manzil bo'yicha Web-sahifani chiqarish.

Birinchi Web-brauzer 1990- yil CERN (Yevropa Yadroviy Tadqiqotlar Kengashi) xodimi Tim Berners-Li tomonidan yaratilgan.

NCSA Mosaic – bu grafik interfeysli birinchi brauzer hisoblanadi. Bu brauzer ochiq kodli bo'lganligi uchun, u **Internet Explorer** va **Netscape Navigator** brauzerlarni yaratishda asos qilib olindi.

Netscape kompaniyasini **Netscape Navigator** brauzerini **Windows, UNIX, Mac OS** - operatsion tizimlarida ishlay olishi uni ommaviylashtirishini ta'minladi. **Microsoft** korporatsiyasini **Internet Explorer** brauzeri esa **Windows** operatsion tizimida ishlaydigan tekin ilova sifatida tarqatila boshlandi.

Internet Explorer 1.0-brauzer 1995 yilning yoz oyining oxirlarida chiqarildi. Shu davr mobaynida bu brauzerning ko'plab versiyalari yaratilildi. Masalan **Internet Explorer 8**, Windows Messenger bilan integrallashgan, multimediali panelli, yuklovchi menejerli, tasvirlarni avtomatik korrektsiyalovchi, qidiruv paneliga ega bo'lgan, namoyon bo'luvchi oyna va bannerlarni blokirovka qilish imkoniyatlariga ega.

Hozirgi kungacha ko'plab Web-brauzerlar yaratilgan. **Internet Explorer**

Google Chrome, Mozilla Firefox, Safari, Opera, AdWiper, Netscape Navigator, Netscape Communication shular jumlasidandir. Bulardan eng ko'p foydalaniladigani Netscape Communication va Microsoft Internet Explorer dir.

Brauzer, sharhlovchi (kuzatib boruvchi), navigator (ingliz tilidan browser – kitob varaqlovchi inson ma'nosini anglatadi) – obyektlarning, masalan veb sahifalarning vizuallashtirilishini ko'rish uchun mo'ljallangan dasturdir.

Veb-sharhlovchi yoki **braúzer** — bu veb-saytlarni ko'rish, ya'ni veb sahifalarni qayta ishlash, chiqarish, bir sahifadan boshqasiga o'tish maqsadida

ularni «O'rgimchak to'ridan» so'rov qilish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotdir.

Hozirda brauzer — veb-sahifalarining turli tashkil qiluvchilarini qayta ishlash va chiqarish hamda veb-saytlar va ularga tashrif buyuruvchilar o'rtasida interfeysni yaratib beruvchi kompleks ilova hisoblanadi.

Amaliy jixatdan barcha ommabop brauzerlar tekinga yoki boshqa ilovalarga qo'shib tarqatiladi, masalan: [Internet Explorer](#) ([Windows](#) ning ilovasi sifatida), [Mozilla Firefox](#) (erkin dasturiy ta'minot), [Opera](#) (8.50 versiyasidan boshlab tekin), [Safari](#) ([Mac OS](#) ning qismi sifatida).

Birinchi keng tarqalgan grafik interfeysli brauzer bo'lib [NCSA Mosaic](#) hisoblangan, so'ngra uzoq vaqtgacha [Netscape Navigator](#) bozorni tark etmagan. 1995 yilda [Microsoft](#) kompaniyasi [Internet Explorer](#) 3.0 ni o'z ichiga olgan [Windows 95](#) OT ni ishlab chiqardi. [Internet Explorer](#) esa bozorning 95 foizdan ortig'ini egalladi. Netscape esa MPL (Mozilla Public License) erkin lisenziyasida o'z brauzerining dastlabki kodini chiqardi va uning asosida yangi [Mozilla](#) va [Mozilla Firefox](#) brauzerlari yaratildi hamda sekin-asta ommabop bo'la bordi. 2005 yilda [Opera](#) brauzeri ham tekinga tarqatila boshlandi.

[WWW-Konsorsium](#) ko'pgina puxta ishlangan standartlarni qabul qiladi ([HTML](#), [Javascript](#), [CSS](#) larning turli versiyalari va boshqalar), lekin bu standartlarga amal qilish butunlay brauzer ishlab chiqaruvchilariga yuklatildi. Oxirgi yillarda standartlarni qo'llash darajasi ancha o'sdi va zamonaviy brauzerlardan faqat **Internet Explorer 6.0** (2001 yil) **Internet Explorer 7.0** (2006 yil 18 oktyabr) standartlarga rioya qilishda muhim kamchiliklar bartaraf qilinib kelinmoqda,

[Windows](#) ([Microsoft](#)) oilasidagi amaliyot tizimlarining lokallashtirilgan versiyalari brauzerlar shunchaki sharhlovchilar, tarmoq sharhlovchilari yoki veb-sharhlovchilar deb nomlanadi.


7.Microsoft PowerPoint : taqdimotda turli obyektlarni joylashtirish

Slayd maketlarini dastur oyasiga chiqarish uchun **Format** menyusidan

Sozdat slayd buyrug'idan foydalanish mumkin.

Tuziladigan taqdimot slaydiga obyektlarni joylashtirish uchun Vstavka menyusidan Obyekt buyrug'i beriladi va **Vstavka obyekt** (Obyekt o'rnatish) dialog oynasi chiqariladi.

1.Тип объекта майдонидан объект
тури танланади, масалан Лист
Microsoft Office Excel



Tuziladigan taqdimot slaydiga obyektlarni joylashtirish quyidagi tartiblarda amalga oshiriladi.

1. **Vstavka** menyusidan Obyekt buyrug'i beriladi;

2. Dastur oynasiga chiqarilgan **Vstavka obyekt**a (Obyekt o'rnatish) dialog oynasidan:

- **Tip obyekt**a maydonidan obyekt turi tanlanadi, masalan **List Microsoft Office Excel**

- **Sozdat noviy** tanlansa slaydga tanlangan obyektни yangi formati o'rnatiladi, Masalan **Excel ni yangi jadvali o'rnatiladi**

- **Sozdat iz fayla** tanlansa slaydga tanlangan obyektни mavjud formati o'rnatiladi, Masalan **Excel** ning mavjud fayli o'rnatiladi

- **Kak znachok** tanlansa slaydga tanlangan dasturni nishonchasi o'rnatiladi

Taqdimot slaydlarga ko'plab dasturiy ilovalarni obyekt sifatida o'rnatish, ulardan taqdimotlarni tuzish va taqdimot jarayonarida foydalanish mumkin. Masalan, video tasvirlar faylini **Windows Media Player** obyekt bilan, elektron jadvali faylini **List Microsoft Office Excel** obyekt bilan, matnli fayllarni **Dokument Microsoft Word** obyekt bilan va h.k. joylashtirilish mumkin